



AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA QISSAXONLIK KECHALARINING AHAMIYATI (Abduqodir Hayitmetovning “Temuriylar davri o'zbek adabiyoti” asari ma'lumotlari asosida)

Muallif: Sherxon Qorayev¹

Affiliyatsiya: Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universiteti dotsenti, (PhD)¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20198046>

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqola Amir Temur huzurida o'tkazilgan qissaxonlik kechalari mazmun-mohiyatiga bag'ishlanadi. Tarixiy manbalarga qaraganda, Amir Temur va temuriylar huzuridagi qissaxonlar hukmdorlarga xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lgan diniy, tarixiy va jangnoma qissalarni she'riy yoki nasriy tarzda so'zlab berishgan. Bunday qissalar temuriy sultonlarga nafaqat o'tmishda hukmdorlar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolardan saboq chiqarishlariga xizmat qilgan, balki ularga jangovor ruh va badiiy zavq ato etgan.

Kalit so'zlar: Qissaxonlar, anbiyolar, sohibqiron, xulosa, hikoyat, she'rxonlik.

Tarixdan ma'lumki, o'rta asrlarda Sharqda xalq og'zaki ijodi targ'ibotchilari qissaxonlar tomonidan hukmdorlar qoshida, aholi xonadonlari va ma'raka yig'inlarida qissaxonlik kechalari o'tkazilgan. Adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetovning “Temuriylar davri o'zbek adabiyoti” kitobiga ko'ra, bunday qissaxonlik kechalari Sharq hukmdorlari, xususan, Amir Temur va temuriy sultonlar huzurida ham tashkil etilgan. Tarixga nazar solsak, Amir Temur huzuridagi qissaxonlik kechalari haqida Ibn Arabshoh o'zining “Ajoyib al-maqdur fi tarix Taymur” asarida shunday yozgan: *“Temur tarix kitoblari-Allohning rahmati va salomu bo'lg'o'r-anbiyolar qissalarini, avval o'tgan podshohlar siyratlari va qadim salaflar haqidagi hikoyatlarni doimo-safarda bo'lganida ham, hadarda (bir joyda muqim) turganda ham (qissaxonlarga) o'qitib, qunt bilar tinglar edi(Temurga qissa va tarixlarni kechalarda mavlono Ubayd o'qigan). Ushbu hikoyatlarning qayta-qayta takrorlanib o'qilishi, ular nag'malarining o'z qulog'iga muttasil chalinishi natijasida Temur ushbu hikoyatlar jilovini qo'liga batamom o'zlashtirib, go'yo o'z mulki misoli “egallab” olgan edi. ...Agar o'qiyotgan qissaxon biror xatoga yo'l qo'ysa, Temur uning xatosini tuzatib, savob(to'g'ri) yo'lga solar edi”*¹ Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro”sida Shayx Ozariyning tog'asi Amir Temurning qissaxoni bo'lganligi, uning o'zi ham Ulug'bek Mirzoga hikoyatlar aytganligi to'g'risidagi rivoyatni keltirib o'tgan: *“Ma'rifatli shayx Ozariy, bunday degan: “Men 800 (1398) yili Qorabog'da, ulug' Amir Temur ko'ragon qissaxoni – tog'am bilan edim. Ulug'bek Mirzo xizmatiga tayinlandim va bir necha yil go'daklik shodligini shahzoda bilan o'tkazdim. U bilan birga o'ynab, naqlu hikoyatlar aytar edim”*² Biroq, adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetov “Temuriylar davri o'zbek

¹ Uvatov U. Donolardan saboqlar. T.: Meros, 1994. - B.52.

² Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni (“Tazkirat ush-shuaro”dan). T.: G'. G'ulom nomidagi ASN, 1981.-B.149.

adabiyoti” kitobida yozishicha, *“Temur huzurida Nizomiy Shomiy, Ibn Arabshoh, Ali Yazdiy kabi tarixchilar bo’lgan. Uning dargohida qanday qissaxonlar bo’lgani aniq ma’lum emas. U davrlarda tarixiy kitoblar bilan badiiy-diniy qissalar o’rtasida mushtarak xususiyatlar ko’p bo’lib, ularning hech birini badiiyatsiz tasavvur etish qiyin edi. Shu ma’noda bunday asarlar buyuk sohibqironga faqat bilim, ma’lumot emas, badiiy zavq berganiga ham shubha yo’q”*.³

Sohibqironning “Temur tuzuklari” asari bizga Temur huzurida o’tkazilgan qissaxonlik kechalarida tinglagan qissalar haqida muayyan tasavvur beradi. Temur o’z kundaliklarida *“Odam Atodan boshlab to Xotamgacha va undan to hozirgi damgacha (Amir Temur davrigacha) o’tgan sultonlarning qonunlarini va turish-turmushlarini donolardan so’rab-surishtirdim. Har qaysilarining yo’l-yo’ruqlari, turish-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va yaxshi axloqlari, ma’qul sifatlaridan o’rnak olib, ularga amal qildim. Davlatlarining tanazzulga uchrashi sabablarini surishtirdim va davlatu saltanat zavoliga sabab bo’luvchi ishlardan saqlandim, naslni buzuvchi ocharchilik, vabo kasalini keltiruvchi zulmu buzuqchilikdan saqlanishni o’zimga lozim bildim”*,⁴ degan o’tmishdagi qissalardan chiqargan xulosalarini esga olib.

“Temur tuzuklari”dagi Mir Sayyid Jurjoniyning Temurga yo’llangan maktubida Sohobqiron yod bilgan qator qissalar bayon etilgan:

-Xorijiyalar Hazrat Aliga ta’nyu la’natlar yog’dirishib, islom dini zaiflashgan pallada nizolarni bartaraf etib, haq dinga rivoj bergan ummaviylar xalifasi Umar ibn Abdulaziz qissasi;

-Xalifa Ma’mun ibn Xorun ar-Rashidning islom dinida paydo bo’lgan yetmish ikki turli botil mazhablarga barham berib, haq mazhabi – ahli sunnat val jamoatni rivojlantirganligi hamda Ali ibn Muso Ja’farni valiahd deb e’lon qilib, uning maslahati bilan mamlakatni idora qilganligi qissasi;

-Abu Tohir boshchiligidagi qarmatlar Makkai muazzamani bosib olib, arafa kuni hajga borganlardan o’ttiz ming nafarining joniga qasd qilib, xalqni qatliom va islom mamlakatlarini talon-taroj qilgan paytda bu fitnani bostirgan xalifa Muqtadir Billoh qissasi;

-Arab xalifaligida kinu adovat va jabr-zulm kuchaygan bir davrda abbosiy xalifa Muti’ Amrilloh o’rniga At-Toi’ Billohni taxtga o’tqazgan buyayhiylar hukmdori Izzuddavla Daylamiy qissasi;

-O’n ikkinchi asrning birinchi yarmida dinsizlar va johillar islomni zaiflashtirganda, ularga qarshi kurashib dinni rivojlantirgan saljuqiylar hukmdori Sulton Sanjar qissasi;

-Mo’g’illar istilosi oqibatida zaiflashgan dinga rivoj bergan, mamlakat va shaharlarda shariatni barqarorlashtirgan, shayx Ibrohim Hamaviy qo’lida yuz ming lashkariga islomni qabul qildirgan G’ozonxon ibn Arg’unxon ibn Huloguxon qissasi;

-Olimlar bilan bahsga kirishib, dinu shariatga rivoj bergan Uljaytu Sulton qissasi.⁵

Sohobqiron Temur diqqatini o’ziga jalb etgan ibratli qissalardan biri “Abbosiylar xalifaligi vaziri xoin Ibn Alqamiy qissasi”dir. Xiyonatkor vazir Huloguxon bilan til biriktirib, o’z hukmdori xalifa Musta’sim Billohni taxtdan ag’daradi. Qissadan hissa shuki, Sohobqiron Temur sotqin Ibn Alqamiy qilmishlaridan xulosa chiqarib,

³ Hayitmetov A. Temuriylar davri o’zbek adabiyoti. T.: Fan, 1996. - B. 17-18.

⁴ Temur tuzuklari. - T: “O’zbekiston”, 2014. – B.6.

⁵ Temur tuzuklari. - T.: O’zbekiston, 2014. – B. 81-87.

hukmdorlarga *“asli toza, nasli pok, ulug‘ zotlarni vazir etib tayinlashni”*⁶ maslahat beradi.

O‘z saroyida qissaxonlardan Eron sarkardasi Bahrom Chubin qissasini tinglab, Sohibqironning tajribasi ortgani va bundan tegishli xulosa chiqargani ham baayni haqiqat. Naql qilishlaricha, turklar hoqoni Shaba uch yuz ming askar bilan Eronga bostirib kiradi. Sosoniylar shohi Hurmuz ibn Nushirvon sipohsolor Bahrom Chubinni 320 ming askar bilan xoqonga qarshi urushga yo‘llaydi. U xoqon lashkari bilan to‘qnashib, uni jangda yengadi va butun o‘ljani Hurmuzga jo‘natadi. Ammo Eron shohi huzuridagi majlisda hasadgo‘ylar *“Bahrom o‘ljaning hammasini yetkazmagan”*; deya lashkarboshiga tuhmat qiladilar. Shohanshoh Hurmuz esa bu bo‘htonga ishonadi va qahramonni xoin deb e‘lon qiladi. U Bahromga ayollar yopinchi, bo‘g‘ov va zanjir yuboradi. Bahrom Chubin bo‘yniga bo‘g‘ov, oyog‘iga kishan solib, ayollar libosini kiygan holda amirlar, qo‘shin boshliqlari va saroy ayyonlari oldiga chiqadi. Hamma Bahromning xizmatlarini unutgan Hurmuzga ta‘nayu dashnomlar yog‘diradilar. Sipoh Bahrom bilan ittifoq tuzib, Hurmuzni saltanatdan tushirib, taxtga Xusrav Parvizni o‘tqazadi. Qissaxonlardan bu qissani eshitgan Sohibqiron Temur O‘rusxonni yengib qaytgan sarkardasi amir lygu Temur haqida xuddi Bahrom Chubin kabi o‘ljalarni o‘zlashtirgan deya to‘qilgan ig‘volarga ishonmasdan, uni xizmatiga yarasha mukofotlaydi.

Nega Amir Temur qissalar tinglashni xush ko‘rgan, degan haqli savol tug‘iladi? Buning sababi haqida Sohibqiron Temur *“Temur tuzuklari”*da shunday degan: *“Muhaddislar (hadisshunoslar), (payg‘ambar, uning avlodlari va sahobalari) haqida rivoyatlar naql qiluvchilar (noqillar) hamda qissaxonlarni ham o‘zimga yaqinlashtirdim. Payg‘ambarlar va avliyolar haqidagi qissalarni, o‘tgan podshohlar to‘g‘risidagi xabarlarni, ularning saltanat taxtiga qanday yetishganlarini, davlatlarining qanday sabablarga ko‘ra zavol topganini ulardan so‘rab bilardim. Har qaysisining qissalari va xabarlari, ishlari va so‘zlarini eshitib tajribam ortdi. Olamda bo‘layotgan voqealarni ulardan eshitardim va jahon ahli ahvolidan xabar topar edim”*.⁷ Binobarin, temuriylar davri olimi Husayn Voiz Koshifiy ham *“Futuvatnomai sultoniyy” asarida “qissa o‘qish va qissa eshitishning foydasi juda katta”*, deydi. Chunki qissa tinglagan kishi o‘tgan ajdodlarning ishi va ahvolidan xabardor bo‘ladi, g‘aroyib va ajoyib voqea, sarguzashtlarni eshitsa, fikri teranlashadi va *“ko‘zi ochiladi”*. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, o‘tmish ajdodlarning qissalarini eshitishdan foyda ko‘p, agar bu qissalar bo‘lib o‘tgan voqealarga bag‘ishlangan bo‘lsa, aytuvchi va o‘quvchi bilan birga eshituvchi ham undan naf‘ topadi.⁸

Temuriy sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy huzuridagi majlislardan birida qissaxon Hofiz G‘iyosiddin Dehdor *“Amir Hamza”, “Abomuslim”, “Dorob”* qissa-dostonlarini o‘qib, majlis ahlini sehrlab qo‘yadi.⁹

Qissa arabcha so‘z bo‘lib, xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan voqeaband xarakterdagi, qahramon hayoti va sarguzashtlarini, voqeyiy hodisa yoki afsonalarni hikoya qiluvchi epik asar. Sodda qilib aytganda, hikoyat va sarguzasht.¹⁰ Xalq og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lmish qissalar majlislarda og‘zaki aytilgan. O‘rta asrlarda majlislarda, maxsus yig‘inlarda, qissaxonlik kechalarida payg‘ambarlar va avliyolar hayotidan hikoya qiluvchi asarlar, ya‘ni *“Qisas ul-anbiyo”, “Hazrat Ali haqida o‘n to‘rt qissa”*,

⁶ Ko‘rsatilgan asar. – B. 108.

⁷ Temur tuzuklari. - T.: O‘zbekiston, 2014.–B.93.

⁸ Husayn Voiz Koshifiy. Futuvatnomai sultoniyy. - T.: A.Qodiriy nomidagi XMN-1994.-B.81.

⁹ Navoiy zamondoshlari xotirasida. T.:G‘ulom nomidagi ASN-1985, -B.183.

¹⁰ Umurov H. Adabiyot qoidalari. T.: O‘qituvchi, 2002.-B.165-166.

“Ibrohim Adham qissasi”, “Zufunun qissasi”, “Amiri Axtam qissasi”, “Bobo Ravshan qissa”lari kabilarni tinglashga talab yuqori bo‘lgan. Qissalarda ishqiy mazmun ham yetakchilik qilgan. Jumladan, “Hazrat Ali haqidagi o‘n to‘rt qissa”da ham Hazrat Alining Allohga qo‘ygan ishq va shu ishq yo‘lida ko‘rsatgan qahramonliklari (masalan, Ajdarning halok etilishi, Maqsura otlig‘ kofirning yuz yigirma minglik qo‘shinining o‘ldirilishi va hakoza) keng hikoya qilingan. Qissada epik tasvir g‘oyatda mubolag‘ali tarzda, folklorga xos ohang va sodda til bilan bayon qilinadi, romantik tasvir yetakchilik qiladi.¹¹

Eng qadimgi janrlardan biri bo‘lmish qissalar “muayyan payg‘ambar yoki avliyo, donishmand shaxs yoki tengsiz pahlavonlar obrazlarining ibratomuz xatti-harakatlari misolida butun xalqning tarixini ideallashtirib ko‘rsatish” (B.Sarimsoqov) qissalarning mohiyatini tashkil etgan. Ularning barchasini umuminsoniy yagona ruh birlashtirib turadi. Bahodir Sarimsoqovning ta‘kidlashicha, qissalar bu – hayotda pokdomon bo‘lish, adolat uchun jon fido qilish, el-yurt qayg‘usi bilan yashash, sadoqatli muhabbat nuridan bahramand bo‘lishga da‘vatdir.¹²

Tarixda “qissaxonlik ikki xil bo‘lgan, deyiladi, “Futuvvatnomai sultoniylar”da. Birinchisi, hikoyat aytish bo‘lsa, ikkinchisi she‘rxonlikdir. Qissaxonlikning ham o‘z tartib, qoidalari bo‘lgan:¹³ Qomus infoda yozilishicha, *“qissaxon – afsona, rivoyat va dostonlarni ifodali qilib aytish yoki badiiy o‘qish mahoratiga ega bo‘lgan professional ijrochi. Qissaxonlar turli yig‘inlarda yoki maxsus qissaxonlik kechalarida xalq dostonlarini, qiziqarli tarjima hikoyalarini, mumtoz adabiyot namunalariining “folklorashtirilgan variantlarini” va har xil jangnomalarni yoddan yoki matn asosida o‘ziga xos ohangda o‘qiganlar. Qissaxon repertuari janr va g‘oyaviy – tematik jihatdan rang-barang bo‘lgan”*¹⁴ Temuriylar davri qissaxoniga turli talablar qo‘yilgan. Birinchidan, *qissaxon ustoz ko‘rgan bo‘lsin, qissalar hech qachon xayolidan ko‘tarilmasin. Ikkinchidan, chapdastlik bilan dadil so‘zga kirishsin, xomlik va lanjlik ko‘rsatmasin. Uchinchidan, majlis qanday qissani qabul qilishini anglasin va el rag‘bati ko‘proq bo‘lgan asarlarni tanlasin. Ammo me‘yorni saqlasin. To‘rtinchidan, hikoya davomida nasrni gohi-gohi nazm bilan qo‘shib olib borsin, lekin bu eshituvchilarga malol kelmaydigan darajada bo‘lsin. Ulug‘ ustozlar: nazm-qissaxonlikda bamisoli taomga solinadigan tuzdir-agar kam bo‘lsa, taom ta‘msiz bo‘ladi va agar ko‘paysa sho‘r bo‘ladi, deganlar. Bas, me‘yorni saqlash lozim. Beshinchidan, yolg‘on va ishonarsiz so‘zlarni gapirmasin, toki elning nazaridan qolmasin. Oltinchidan, kinoyal, tushunilmaydigan so‘zlarni aytmasin, chunki bu eshituvchilarni ranjitadi. Yettinchidan, qissaxonlikni tez tugatmasin va haddan ziyod cho‘zmasin ham, o‘rtalikni saqlasin.*¹⁵

Muxtasar aytganda, Amir Temur va temuriylar davrida majlislardagi qissaxonlik yoki qissaxonlik kechalari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan. Negaki, qissalar tinglovchilarni iymon-e‘tiqodli bo‘lishga, vatanparvarlikka, qahramonlikka, fidoyilikka undagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Uvatov U. Donolardan saboqlar.T.: Meros, 1994.

¹¹ <https://uztext.com/92076-text.html>

¹² Umurov H. Adabiyot qoidalari. T.: O‘qituvchi, 2002.-B.165-166.

¹³ Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniylar.T.:Meros, 1994.-B.82.

¹⁴ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-q/qissaxonlik-uz/>

¹⁵ Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniylar.T.:Meros, 1994.-B.82.

2. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni ("Tazkirat ush-shuaro"dan).T.: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1981.
3. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. T.: Fan, 1996.
4. Navoiy zamondoshlari xotirasida. T.: G',G'ulom nomidagi ASN-1985.
5. Husayn Voiz Koshifiy. Futuuvatnomai sultoniyy.T.: Meros, 1994.
6. Umurov H. Adabiyot qoidalari. T.: O'qituvchi, 2002.
7. 4. Temur tuzuklari. –T.: O'zbekiston, 2014.-B.220.
8. Qorayev Sh. Navoiy adabiy majlislari.-Qarshi: "Qashqadaryo ko'zgusi OAV", 2019.-B.180.
9. Qorayev Sh. Navoiy majlislari.-T.: Lesson – Press, 2020.-B.312.
10. Qorayev Sh. Temuriylar davri adabiy majlislari (Alisher Navoiy qarashlari asosida). –T.: Donishmand ziyosi, 2021.-B.262.
11. Qorayev Sh. Temuriy shoirlar tazkirasini. –Qarshi: Intellekt, 2024.-B.268.
12. Qorayev Sh. Navoiyshunoslik. 1-kitob. –Qarshi: Ilm-fan va ma'naviyat, 2025.-734 b.
13. Qorayev Sh. Navoiyshunoslik. 2-kitob. – Qarshi: Ilm-fan va ma'naviyat, 2025.-813 b.
14. <https://uztext.com/92076-text.html>
15. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-q/qissaxonlik-uz/>